

INGLIZ TILIDAGI "HEAD" KOMPONENTLI FB LARNING O'ZBEK TILIDAGI MONOEKVIVALENTLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10250129>

Halimova M.M

Andijon davlat chet

tillari instituti f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqola orqali "Head/bosh" komponentli frazeologizmlarni tildan tilga o'girish amaliyotchi tarjimonlar uchun ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi hamda ularni bartaraf etishda qiyoslanayotgan tillarda "head/bosh" somatizmi FB larning ekvivalentlik darajalarining xilma-xilligi, "head/bosh" komponentli FB larning asimmetrik (sinonimiyasi, omonimiyasi, antanomiyasi) jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'z va iboralar

head/bosh somatizmi, komponent, frazeologik birliklar, assimmetriya, sinonimiya, omonimiya, antanomiya.

Annotation

Through this article, the translation of phraseologisms with the "Head/bosh" component from language to language creates certain difficulties for practicing translators, and in order to overcome them, the diversity of equivalence levels of FBs with "head/bosh" somatism in the languages being compared, with the "head/bosh" component Attention is paid to asymmetric (synonymy, homonymy, antonymy) aspects of FBs.

Key words and expressions

somatism head/bosh, component, phraseological units, asymmetry, synonymy, homonymy, antonymy.

Ingliz tilidagi "head" li FB larning o'zbek tilidagi monoekvivalentlari ma'nosi, leksik tarkibi, obrazligi grammatik tuzilish va stilistik xususiyatlariga ko'ra to'liq frazeologik ekvivalentlar bo'lib kelishi mumkin. Masalan, bury one's head in one's hands - boshini qo'llari bilan berkitmoq; hold one's head high - boshini baland tutmoq; eater one's head - kallasiga kelmoq; from head to foot - boshdan-oyoq; have a good head on one's shoulders (miya)da saqlamoq, knock one's head against sth - boshini biron narsaga urib olmoq; better be the head of a dog than the tail of a lion - sherning dumi bo'lgandan ko'ra itning boshi bo'lgan yaxshi, lay one's head on the block - boshini kundaga qo'yimoq, lift up one's head - yana boshini ko'tarmoq.

Shuningdek, "head" li FB lar o'zbek tilida qisman ekvivalentlarga ega bo'lishi mumkin. Bunday qisman ekvivalentlik maqomiga ega FB lar ma'no va stilistik jihatdan umumiylik kasb etib, leksik va grammatik farqli jihatlarga ega bo'ladilar. Masalan, knock (run) one's head against a brick wall – boshini devorga urmoq; lie on somebody's head – kimnidir boshiga minib olmoq; make somebody's head sing – kimnidir qulog'ini shang'illatmoq; over smb's head – kimnidir boshini xatlab; run in one's head – kimnidir kallasida aylanmoq, win by a head – bir kalla oldinda bo'lmoq; shut one's head – og'zini yummoq.

Tahlillar yuqorida keltirilgan FB lar va ularning ekvivalentlari orasidagi asosiy farq ularning leksik tarkibi va komponentlar tarkibida ko'rinmoqda, FB tarkibida brick (g'isht) mavjud, o'zbek tilida esa u yo'q, lie o'zbek tilida minib olmoq, sing shang'illatmoq, head – qulog'i, over – xatlab, run – aylanmoq, win – oldinda bo'lmoq, head – og'iz ma'nolarini kasb etmoqda.

Bunday FB lar tarkibidagi so'zlar tartibida quyidagicha asosiy farqli jihatlar kuzatiladi:

Ingliz tilida

Vinf + Prn ind poss + head + prep + Adj + N

Vinf + prep + prn ind with possessive

endings + head

Vinf Prn ind in poss.case + head+V

Prep + Prn ind in poss.case + head

O'zbek tilida

Obj+N+Vinf

Prn+com. case end

Prn ind+Obj+Vinf

Prn ind+Obj+Adv

Demak, tarjimonlar ingliz tilida head somatizimli FB lar strukturasi V + Attr + N predlog va egallik kelishigidagi gumon olmoshlari (one's, somebody's) modeliga, o'zbek tilida esa ularning ekvivalent modellari Prn ind + N case end + V inf (tushum, jo'nalish kelishigida) muvofiq kelishi bosh haqidagi bilimlarga ham ega bo'lish tarjima adekvatligini ta'minlashning shartlaridan bir ekanligini bilib qo'yish muhimdir. Bunday farqli struktural-grammatik jihatlar chog'ishtirilayotgan tillar tipologik jihatdan analitik va agglyutinativ tillar sirasiga kirishligi bilan izohlanadi. Aniqrog'i, sintagmatik munosabatlar ingliz tilida so'z tartibi, predlog va kelishik qo'shimchalari orqali ifodalansa, o'zbek tilida leksemalararo munosabatlar ko'makchilar, kelishik qo'shimchalari orqali ifodalanadi.

Kuzatishlar ingliz tilidagi "head" somatizimli FB o'zbek tilida birdan ortiq ekvivalentlarga ega bo'lishligini ko'rsatdi. Bunday hollarda ma'lum kontekstlar uchun muvofiq ekvivalentni tanlash vazifasi paydo bo'ladi.

Bunday FB lar quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

Inglizcha "head" komponentli FB larning poliekvivalentliligi.

Jadval 3.3

Inglizcha FB	O'zbekcha poliekvivalentlar	Kontekstual ma'nosi
Break one's head over something	Biron narsa ustida bosh qotirmoq	Biron narsa ustida uzoq o'ylamoq
	Miyasini qotirmoq	O'ylayverib gangimoq; keraksiz va yoqimsiz fikrlar bilan birovni boshini aylantirmoq
	Miya(si) g'ovlab ketmoq	Miyasi keraksiz fikrlar bilan to'lib toshib ketmoq
	Boshi ishimmoq	Turli keraksiz o'y-fikrlar bosh(i)ni chulg'ab oldi

Tarjima matnlari ustida o'tkazilgan tahlillar, o'zbek tilidagi boshi qotmoq FBsi ingliz tiliga nafaqat muvofiq FBlar, boshqa leksik va grammatik vositalar orqali ham tarjima qilinishi mumkinligi imkoniyatlarini ko'rsatdi: break one's head over sth, rack one's wits about (with) sth, to trouble one's head about sth, rack one's brains over sth, beat one's brains about (with) sth, ransack one's brains about (with) sth, to puzzle over / about sth, cudgel your brains (eski Brit.); think of sth / smb, wonder / (about smth), ponder (about / on, over sth), consider sb / sth: He thought upon it for a half - hour¹² . . . - Gerstvud bu haqda yarim soatcha bosh qotirdi¹³; It was much to ponder over, and sufficed to entertain her for more than a year without becoming stale¹⁴.

Bu yerda bosh qotirishga arzigulik narsalar serob, yangi taassurotlarning o'zi ham naq bir yilga yetar, birontasi ko'ngilga tegmasdi¹⁵; He tried to think of some place to go or something to do¹⁶; - U zo'r berib, ish qidirib yana qaerga borsamikan, deb, bosh qotira boshladi¹⁷; I' ve been wondering all this time what had come of

¹² Dreiser. Sister Carrie. – P. 273.

¹³ Теодор Драйзер.Бахтиқаро Керри.Илм-зиё-заковат, 2019. – Б.246.

¹⁴ Dreiser. Sister Carrie. P. 337.

¹⁵ Теодор Драйзер.Бахти қаро Керри.Илм-зиё-заковат, 2019. – Б.309.

¹⁶ Dreizer. Sister Carrie.P. 389.

¹⁷ Теодор Драйзер.Бахти қаро Керри.Илм-зиё-заковат. 2019. – Б.359

you¹⁸; - Sizlarga nima bo'ldiykin deb, rosa boshim qotdi-da¹⁹; She racked her brains, trying to remember exactly what she had said²⁰ U qiz aniq nima deganligini eslashga harakat qilib ancha bosh qotirdi (tarjima bizniki) - Today everybody is beating their brains about it (tarjima bizniki). G'alati ahvolga tushib qoldim men. Miyam g'ovlab ketmasa, deb qo'rqaman²¹; - These are strange circumstances I'm in. I just hope I don't lose my head²².

Ingliz va o'zbek tillari materiallari tahlili shuni ko'rsatdiki, "head/bosh" konseptini lisoniy ifoda vositalari o'rtasida tilning bir sathiga va tilning turli sathlariga oid muvofiqlik (ekvivalentlik)lar mavjud ekan. Buni qulaylik maqsadida quyidagi diagrammada namoyish etamiz:

Ingliz tili		O'zbek tili
I.sodda tub so'z	←→	sodda tub so'z
a) sodda ot so'z	←→	codda ot so'z
head		bosh, kalla
b) sodda fe'l so'z	←→	so'z birikmasi
to head		etaklab (boshlab) bormoq
to nod		bosh irg'amoq
to shake		bosh chayqamoq
s) sodda sifat so'z	←→	sodda sifat so'z
bald		kal
II.yasama so'z	←→	yasama so'z
a) yasama ot	←→	so'z birikmasi
header (futbol)	←→	keptokni bosh bilan urish
headship	←→	tashkilotga mas'ul, amal
b) yasama sifat	←→	so'z birikmasi
headed	←→	kishining ismi-sharifi
manzili, tashkilot bosilgan joyi		
headless	←→	yasama so'z
III. qo'shma so'z	←→	boshsiz so'z
a) qo'shma ot so'z	←→	sodda ot so'z
headlight		fara, fanar, fonus
b) qo'shma ot so'z	←→	qo'shma ot so'z

¹⁸ Dreiser. Sister Carrie.P. 395.

¹⁹ Теодор Драйзер.Бахти каро Керри.Илм-зиё-заковат. 2019. – Б.309

²⁰ Oxford Advanced Learners' Dictionary.2000.P.142

²¹ Чўлпон. Кеча ва Кундуз. –Тошкент : Шарқ нашриёти, 200. – Б.217.

²² Chulpon. Night and Day.P. 199.

headgear	↔	bosh kiyimi
s) qo'shma fe'l so'z	↔	sodda fe'l so'z
headline	↔	sarlavhalamoq
d) headline	↔	fe'lli so'z birikma
sarlavha qo'yimoq		
headhunt	↔	ishlab turgan ishdan bo'shab
undan kattaroq ishga o'tishga		
ko'ndirmoq		
c) qo'shma sifatli so'z	↔	yasama so'z
headstrong	↔	cababli, quntli, qat'iyatli
yo) qo'shma ravishli so'z	↔	qo'shma ravishli so'z
headlong		boshi oldinda
IV. qo'shma yasama	↔	qo'shma yasama
a) qo'shma yasama ot	↔	qo'shma yasama ot
headstrongness	↔	qat'iyatlilik
head worker	↔	aqliy mehnat kishisi
head - liner	↔	so'z birikmasi
head teacher	↔	
qo'shma ot maktab direktori		
b) qo'shma yasama sifat	↔	so'z birikmasi
headquarted	↔	ma'lum joyda shtab kvartira
(qarorgoh)ga ega bo'lish		
three - headed	↔	uch boshli, kal boshli
c) flat - headed	↔	so'z
muddle - headed	↔	ahmoq, to'nka, nodon
V. so'z birikmasi	↔	so'z birikmasi
fe'lli so'z birikmasi	↔	fe'lli so'z birikmasi
a) to nod one's head	↔	boshini irg'amoq, boshini
pastga va tepaga qimirlatmoq		
to lower one's head	↔	boshini quyi solmoq
to lift (raise) one's head	↔	boshini ko'tarmoq
to put one's head on the pillow	↔	boshini yostiqqa qo'yimoq
e) otli so'z birikmasi	↔	otli so'z birikmasi
head of a state	↔	davlat boshlig'i (rahbari)
s) sifatli so'z birikmasi	↔	sifatli so'z birikmasi
two headed dragon	↔	ikki boshli ajdarho
b) so'z birikmasi	↔	frazeologik birlik

to think about or discuss sth as a group	←→	boshlarni bir joyga qovushtirmoq
to be good at sth	←→	biron narsada kallasini bo'lmoq
(kallasini yaxshi)		
s) co'z birikmasi	←→	so'z
VI. a) frazeologik birlik	←→	frazeologik birlik
make sb's head sing	←→	qulog'i shang'illamoq
Head and shoulders above sb	←→	bir kalla baland bo'lmoq
(turmoq)		
v) frazeologik birlik	←→	so'z birikmasi
have a head like a sieve	←→	xotirasi yomon bo'lmoq
cut shorter by the head	←→	boshi, kallasini olmoq
(kesmoq)		
s) frazeologik birlik	←→	so'z (sifat, fe'l)
having a swelled head	←→	takabbur, kekkaygan
laugh your head off	←→	kulmoq

Tahlillar "head/bosh" komponentli FBlar tarkibida ekvivalentsiz FBlar ham mavjudligi, ularni tildan tilga o'girishning samarali usullari tasvirlash, kalkalash (so'zma so'z) va tarjima tilidagi uning o'xshashi (analogi) orqali tarjima qilishdir. FBlarni analoglari orqali tarjima qilish kam bo'lsada, amaliyotda uchraydi. Masalan, *dunce's cap* – jinnini qalpog'i, *wooden – headed* ahmoq, *tentak – yog'och kalla*, *Heads I win, tails you lose* (so'z.) – Oshig'im olchi, *strong head* – ichkilikni ko'taradigan kishi; *to one's head* – yuziga, *blow out sb's brains* – miyasini qatig'ini chiqarmoq (o'qotor qurol bilan otib), *to cut shorter by the head* – boshi ketmoq (qurbon bo'lmoq).

Ma'lum kontekstlardagina ekvivalentlik maqomiga ega bo'lishi mumkin bo'lgan FB larni okkazonal yoki unikal ekvivalentlar (A.V.Kunin bu toifa tarjimalarni obertonal tarjima deb ataydi).²³

Masalan, *to have an old head on young shoulders* FB (u qo'llangan kontekstlarda) o'zbek tiliga qiz bolalar uchun kampir, o'g'il bolalar uchun chol yoki har ikkalasi uchun 70 sonini okkazonal tarzda qo'llangan xolda (ma'nosi yoshi, yoshligiga qaramay aqlli, ziyrak, teran fikrlaydigan) tarjima qilinishi mumkinligi aniqlandi.

²³ Кунин А.В. Англо – русский фразеологический словарь М, И Изд. Советская Энциклопедия Книга I 1967,11)

Shuningdek, shut one's head (sleng) FB odatda buyruq gaplarda tilini tiymoq, indamay turmoq ma'nolarida qo'llanadi va u o'zbek tilida o'ch ishlatilishini quyidagi gap tarjimasi orqali ko'ramiz.

Shut your heads, and let Tom go on²⁴! – O'ch, Tom gapirsin endi (tarjima bizniki).

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, har qanday milliy tildagi olamning frazeologik manzarasi olamning aynan nusxasi emas, balki uning erkin izohi (interpretatsiyasi)dir, chunki FBlar olamni sodda, bir qadar o'zgacha subyektiv va assotsiativ baholash tarzida ifoda etadi. FBlarda olamning til egalari uchun muhim bo'lgan jihatlari barobarida, borliqqa xos bo'lmagan xususiyatlar, insonlarning unga bo'lgan munosabatlari ham ifodalanadi. FBlar olamdagi narsa-xodisalar o'rtasidagi munosabatlar borasidagi tasavvurlarni o'zida aks ettiradilar.

²⁴ M.Twain – Tom.Sawyer, ch XVIII